

IQBOL MIRZO SHE'RLARI TILIGA LINGVOPOETIK CHIZGILAR

Yorqinjon Odilov

Filologiya fanlari doktori, professor
O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti

O'zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzo – o'zbek she'riyatiga o'z so'zi, o'z nazari bilan kirib kelgan ijodkor. Hajman ixcham misralarda fikrni o'ktamlilik bilan aytish, ba'zan siz-u biz ko'rib-bilib yurgan, biroq epini topib aytolmagan haqiqatlarni, ba'zan shoirona daqiqlik bilan anglaganlarini takrorsiz topilmalarda bera bilish – shoir ijodiy kredosidagi yetakchi jihat. Uning she'rlarini o'qir ekansiz, buning bosh sababini anglaganday bo'lasiz: shoir xalq hayotini ich-ichidan biladi, chunki o'zi ham qo'li qadoq xalq ichidan chiqqan, shu el qozonida obdon qaynagan. Iqbol Mirzoning 2020-yil kitobxonlar qo'liga yetib borgan uch jildligining dastlabki ikki jildiga uning turli yillarda bitgan she'rlari jam bo'lgan. Anchadan beri shoir she'riyatini kuzatib yurganim uchun Iqbol Mirzoning olam va odamga munosabatini, shoirona shavqi tabiiylikdan tug'ilgan sezimlarini til prizmasidan qanday o'tkazishi borasida fikr yuritishini dilga tugib yurardim. Quyida ana shu jihatlar haqida so'z boradi.

Inson olamni til orqali anglaydi, idrok qiladi. Bunda unga til xotirasida muayyan nom ostida saqlangan bilimlari yordamga keladi. Tilning olamning bilishdagi vazifasi tafakkurdagi bilimlarni tegishli nom – so'zlarda shakllantirishda ko'rinadi. Agar bilim-tajribalarimizning nomi bo'lmasa, ularni bir-biridan farqlab bo'lmay qoladi. Inson o'zi uchun tamoman yangi, butkul noma'lum narsaga duch kelgan ondayoq uni o'zi bilgan narsalar bilan bog'lashga, o'xshash tomonlarini izlashga tushadi, yangi tushunchani eski narsaga o'xshatib anglashga, anglaganlarini esa atashga kirishadi. shu ma'noda o'xshatishlar she'rda tushunchani tushuntirishning eng yaxshi usulidir. Iqbol Mirzo "Kareliya" she'rida bu tarz idrok intizomidan o'rinli foydalanadi:

*Tamaki kulidek omonat umid,
Tutundek barmoqqa ilashmas imkon.
"Aytgan gaplarimning hammasin unut,
Senga atalmagan dilim ham... yolg'on!"*

Shoirning shoirona taxayyuliga ko'ra, bu dunyoda umiddan omonatroq narsa bo'lmaydi, bugun bor – ertaga yo'q. Ana shu omonatlik ana-mana to'kilaman deb turgan tamaki kuliga o'xshatilgan. Shoir *umidning orzudan* bir pog'ona past turishini, *umid* va *orzu* so'zlaridagi ma'no nozikligini aniq tuygan holda qo'llagan. Keyingi qatordagi o'xshatishli birikma (*Tutundek barmoqqa ilashmas imkon*)da avvalgi

misradagi xulosa badiiy rivojlantirilgan: o'z ixtiyorimizda deb yurgan imkoniyatdan foydalanishda shu qadar ojizmizki, uni qo'lda tutib ololmaymiz, chunki imkon qo'lga kirmaydi, kaftda turmaydi. Ijodkor bu hayotiy muammoni o'xshatish yordamida badiiy yechgan.

Mazkur she'rning so'nggi bandida shunday misralar bor:

Lekin ko'zlaringni sog'indim sening,

Cho'g' yashnab, ko'ksimga sochilmoqda kul.

Labimda kichrayib boryapti sekin

Senga atalmagan mo'jaz atirgul.

Bizni qiziqtirgani – cho'g'ning yashnashi va kulning sochilishi, chunki unda presuppozisiya ifoda topgan. Ya'ni: cho'g' o'zidan-o'zi yashnamaydi, yashnashi uchun kamida shabada kerak. Ammo shoir shabada esishini misra ortiga – “ko'ksimga sochilmoqda kul”ga yashirgan, bu bilan ham ifodani lo'ndalashtirgan, ham fikrni bikirlashtirgan.

Biz Iqbol Mirzoning xalq hayotini ich-ichidan bilishini shunchaki yo'liga yoki daromad uchun aytmadik, chunki bunga uning yozganlari yo'l bermaydi. Shoir o'zining eng erka tuyg'ularini ham, eng achchiq o'ylarini ham xalqona voqelantirishni afzal ko'radi. Til mahorati deb baholasa bo'ladigan bunday yo'l shoirning she'rlarini o'qimli qilish birga, shaxsini ham, shaxsiyatini ham xalqqa yaqinlashtiradi. Aslida-ku, shoirning fitratida oddiy xalqqa yaqinlik bor, basharti bunday tutum bo'lmaganda, ijodkor tez-tez xalqona so'zlarga murojaat qilmasdi, biz kunda ko'rib-bilib yurgan oddiy haqiqatlarni misralar mag'ziga singdirmasdi. Masalan, “Qilich” she'rida temirchi ustaning ish jarayoni va bolaning “isyon”i cho'g' lang'illaydi, otamga kim qarashadi, ukam buvak hali, qo'llari panshaxa, kallasi paqir, yuz paqir olasan tarzidagi so'zlarga yuklaydi. Chindan, xalq tilida otamga kim yordam beradi deyilmaydi, balki otamga kim qarashadi deb ochiq aytiladi-qo'yadi. Shoir oddiy odamlar haqidagi haqiqatni oddiy qilib aytishni ma'qul ko'radi, chunki kitobxon o'ziga tanish baytlarni yuragiga yaqin oladi.

Shoirning “O'zbek o'g'li” she'rida xalq tilida yuradigan “Bir kun tuz yegan joyingga qirq kun salom ber”, “Yigit kishining egilgani – o'lgani” tarzidagi ming yillik xulosalardan foydalaniladi, o'zbek yigiti haqida gap ketgani uchun yigitlik timsoli *belbog'* so'zini qo'llab, maqol mazmunini kuchaytiradi:

Ikki daryo o'rtasi keng dasturxon,

Tuz totgansan, tuzlig'ingni unutm.

Dasturxonni belbog' qilib o'stirgan

O'zbek o'g'li o'zligingni unutm!

Ushbu to'rtlik bizga tuz totgan joyini tor va keng ma'noda tushunishga imkon beradi. Tor ma'noda agar sen o'zingni chin o'zbek yigiti sanasang, osh-non yegan, bola-chaqa boqqan, ha, bor ana, yaxshilik ko'rgan joyingni esingdan chiqarma, demoqchi shoir. Keng ma'nodagi tuz totgan joyning Movarounnahr deb ataladigan

Vatan ekanligini “Ikki daryo o‘rtasi keng dasturxon” jumlasini anglatadi. Uchinchi misradagi *dasturxon* so‘zi o‘z ma’nosida qo‘llangan bo‘lsa ham, bu el “o‘z dasturxonini belga belbog‘ qilib farzand o‘stirganligi”dek qiyos natijasida ayni so‘z “ne’matga kon diyor” tushunchasini “tashigan”.

She’rning keyingi bandida shoir so‘zlari er yigitlarga qo‘yilgan talabdek yangraydi:

*Sadarayhon bukilgani – so‘lgani,
Er yigitning egilgani – o‘lgani.
Yo‘l bermagin dushmanlarga kulgani
O‘zbek o‘g‘li o‘zligingni unutma!*

Ma’lumki, rayhonning turlari ko‘p, ammo el ichida suyumligi sadarayhon, chunki shaklan chiroyli, tik qadli bu o‘simlikning hidi nihoyatda o‘tkir. Shoir bu gulning ana shu xususiyatlarini yaxshi anglagan holda “chin er nokaslar oldida tiz cho‘kmaydi” degan mazmunni qiyosan ifodalagan, ya’ni: sadarayhonning bukilishi uning so‘lishi sanalganidek, chin yigitning sharafsizlar qoshida egilishi ma’nan o‘lish bilan teng. Mazkur qiyos kitobxonda estetik zavq uyg‘otadi, o‘quvchi shuurini aytilmoqchi bo‘lgan asosiy gapga tayyorlaydi va keyingi misra sari yetaklaydi. Qahramonini ma’nan o‘lmaslikka undagan shoir uchinchi misrada raqibga hatto kulgani imkon bermaslik pandini beradi. Mazkur pandning qat’iy chiqishini esa “yo‘l bermagin” iborasi ta’minlagan, qolaversa, fikrning badiiy kuchini oshirgan.

Til – dunyoni ko‘rish, anglash shakli. Shu bois inson qaysi tilda gapirsa, dunyoni shu tilda taniydi. Bu qarash til haqidagi fanda ham tan olingan. Hatto “yig‘lasa ham ona tilida yig‘laydi” (O‘.Hoshimov). Agar banda o‘z ojizligiga borsayu, olamni boshqa tilda ko‘rishga ko‘niksa, bu uning milliy mansubligini almashtirganidan dalolat. Yaqin tariximizda milliy zehniyatning yo‘qolishi, hamiyatning bu tarz erga urilishidek holatlarga baqanti kelganlarni eshitganmiz. Shoirning ham qiyofasiz zamondoshlaridan – zamonasozlardan kuygan-kuyungan paytlari, shundayin kimsalardan og‘ringan kunlari bo‘lgan, ehtimol, yo‘qsa, “O‘ylaganda lek o‘zbekcha o‘ylasin” deyishgacha bormasdi. Avlodlar o‘zini tanishi, o‘zligini yo‘qotmasligi uchun esa Navoiylarini o‘qib turishi lozim. Iqbol Mirzoning eng yoniq tuyg‘ulari jam bo‘lgan “Yigit” she’ridagi quyidagi bandda zikr etganimiz xulosalar ifoda topgan:

*Dunyo kezsini, o‘nta tilda so‘ylasin,
O‘ylaganda lek o‘zbekcha o‘ylasin.
Navoiyni chang bostirib qo‘ymasin,
Mudramasin qo‘lga kitob olganda.*

Tilning olamni tanish, bilish kaliti ekanligiga Iqbol Mirzoning iymoni komil. Shu bois she’rlarida ona tiliga ana shunday imkon sifatida qaraydi. Borliq hodisalari, olam sinoatlarini nomlashda so‘zning o‘rniga juda jiddiy diqqat qiladi. Umrini so‘z bilan sirlashib o‘tkazayotgan shoir “Yolg‘iz” she’rida tilning gnoseologik vazifasini ikkitagina misrada rost va raso voqelantira olgan:

*Har elat o'zicha atar shamolni,
Mingta ism bilan yashaydi yulduz.*

Ona tilining bunday imkoniyatini teran anglagani, til bilan tillashishdan huzur tuygani uchun bo'lsa kerak, shoir bu bandni o'ta o'ktamlik bilan bitiradi:

*Sen qaydan topasan boshqa Iqbolni,
Axir men bittaman, yagona, yolg'iz.*

Iqbol Mirzoning nazdida, el va til – egizak, til va el – taqdirdosh. Shu bois eli tarixi to'g'risida qalam surganda tilini, tili haqida yozganda elini esdan chiqarmaydi, chiqarolmaydi. Uning “O'zbek” she'rida qadim turkiylarning Yofas orqali Nuhga borib tutashishi, Alp tegin bobo avlodlari hatto Volga, Yenisey daryolari sohillarigacha bo'lgan hududlarni makon tutganidan hikoya qiladi:

*Manglayga kaft qo'yib olisga boqsam,
Edildan ko'rinar bo'ylaring, o'zbek.
Tush kabi jimirlab ming yil oqsa ham,
Noming aytar enasoylaring, o'zbek.*

Shoir o'zi so'z ochgan qadim turkiylar ulkan hududda istiqomat qilganligini, tarix bilan bugun orasidagi masofa kattaligi ochiq aytishdan tiyiladi, birgina “manglayga kaft qo'yib qarash” bilan makonning muazzamligini aniq-tiniq ko'z oldingizga keltirib qo'yadi. Tubsiz daryolarning tinch oqishi, suv yuzasining jimirlab turishi uning sayozligidan emas, uning azimligi tubida, tubsizligida. Turkiylarning kimligini bilish kerak bo'lsa, ularni onadek to'ydirgan “Enasoy”laridan so'rash lozim.

O'zbekiston xalq shoir Iqbol Mirzo ijodiy merosining til xususiyatlari haqida ko'p va xo'b yozish mumkin. Buni shoirning nazmi ham, nasri ham ko'taradi. Biz shu kunlarda ellik besh yoshga to'lgan elning sevimli shoiriga ijodiy bardavomlik tilagan holda qolgan gaplarni monografik tadqiqotlarga qoldiramiz.